

**MUALLIF ONG FENOMENOLOGIYASINING BADIY OBRAZLARGA****KO'CHISHI**

Tilovova Muyassar

QarDU doktoranti

**Annotatsiya:** Fenomenologik metod bugungi adabiy tahlilda muallif ongi, qarashlari va fikrlariga olib boradigan eng samarali usullardan biridir. Chunki bunday tahlil matnga jonli obyekt sifatida qaraydi. Sababi, matn toki o'quvchi qabul qilmagunicha kutish holatida bo'lib, adabiy jarayonga tortilmaydi. Faqatgina kitobxon qabul qilganidan keyin, o'qish jarayonida badiiy asarga aylanadi. U kitobxonning matndagi tajribalarga berilgan reaksiyasiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** fenomenologik metod, yaratuvchi va qabul qiluvchi ong, fenomen, fenomenologik roman, fenomenologik hikoya

O'zbek adabiyotshunosligida fenomenologiyani qo'llash, zamonaviy adabiy tanqidda fenomenologik tahlilning metodologik tamoyillarini ishlab chiqish, badiiy asarni fenomenologik metod doirasida tahlil qilish kam uchraydi. Bu metoddan tahlilda foydalanishimiz, asarning yangi qirralarini ochish, unda muallif nazarda tutgan g'oya va maqsadni yanada aniqroq anglay olishimizga xizmat qiladi. Adabiy matnga nisbatan yondashish usullari, xuddi adabiy jarayon kabi tinimsiz o'zgaradi. Ammo bu tahlil usullarining barchasi nisbiy sanalib, badiiy matn haqida tugal, savolga o'rin qoldirmaydigan tarzda javob berish mumkin emas. Metodlar asarga uning turli qirralaridan yondashib chiqariladigan fikr va mulohazalardir, aslo qat'iy hukmlar emas.

Ushbu maqolada nazariy asoslarini ishlab chiqishga urinayotgan fenomenologik metod ham matnga nisbatan yangicha yondashuvga urinishdir. Ushbu metod san'at asarini ong fenomeni sifatida tahlil etishni va u onga ma'noli mazmun beruvchi obyekt ekani masalasini ko'rib chiqadi. Fenomenologiya doirasida inson real borliqdagi narsalar bilan emas, balki o'z ongidagi hodisalar bilan ishlaydi. Buning ma'nosi olam insonga faqat uning o'z ongidagi hodisalar umumiylikida ko'rinadi, bunda o'zining obyektiv mavjudligi idrok etilmaydi. "Fenomenologik" tushunchalar doirasida sinonim sifatida ishlatadiganimiz "fenomenologik roman", "fenomenologik nasr", "fenomenologik rivoyat" kabilarni keltirib, ularning sharhiga to'xtalar ekanmiz, dunyo adabiyotshunosligida tadqiqotchilarning bu e'tiroflarga erkin munosabat bildirganiga guvoh bo'lamiz. L.A. Kolobaev, fenomenologik romanning mavjudligini asoslab, uning janr yaratuvchi sifatida "fenomenologik dunyoqarash" atamasini ishlatadi. Fenomenologik dunyoqarash deganda esa muallif nuqtayi nazarini ko'zda tutib amalga oshiriladigan tahlilni nazarda tutamiz. Demak, badiiy asar, avvalo, muallif ong fenomenologiyasidir.

Biz masalani oydinlashtirish maqsadida adibimiz Shukur Xolmirzayevning bir qator hikoyalari murajaat qilib, yozuvchining tasavvuri, fikrlari, qarashlarini fenomenologik

metod doirasida tahlil qilishga urindik. Adib nasridagi obrazlar, shakl va mazmun mohiyati ko'rib chiqildi. Muallif ijodiga bir necha metodlar bilan birga fenomenologik yondashuv yangi xulosalar chiqarishimiz, badiiyatning yangi qirralarini ochishimizga yordam beradi. Sababi fenomenologik metod matnga adabiy yondashuvdan tashqari falsafiy, psixologik, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografik, tarixiy aspektlarda yondashish imkonini beradi.

Dastlabki tahlilga muallifning bevosita o'zi qahramon bo'lgan, real hayotda boshdan kechirib yozgan voqeyiy hikoyalarini tanlab oldik. Quyida "fenomenologik" deb atayotgan tushunchalarimizning "fenomenologik rivoyat" turiga mansub bo'lgan, asosiy tamoyili qahramonning ongi va idrokida aks etgan fenomenlarni aks ettirishga qaratilgan hikoyalar tahlili beriladi. Bu hikoyalarda muallif boshidan kechirgan voqelik va his qilgan kechinmalar aniq ifodalanib badiiy ijod hodisasi jarayonida muallifning ong fenomenini yaqqol ko'zga tashlanadi. Qolaversa, adib o'z xotiralarida "Ozbek xarakteri", "O'zbek bobo", "Olis yulduzlar ostida", "Zov ostida adashuv", "Yozuvchi" va boshqa ko'plab hikoyalardagi xarakterlar talqini, til xususiyatlari, milliy ruh bevosita o'z shaxsi bilan bog'liqligini eslab o'tgan. Bolalikdan boshlanib butun hayoti davomidagi xotiralar ijod fenomenologiyasi jarayonida asarlariga singib ketgan. Fenomenologik metodni badiiy tahlilga yangicha yondashuv usuli sifatida tasniflash uchun buyuk adibimiz ijodi to'la mos keladi. Adib hikoyalarda his-tuyg'u, idrok, hissiy-refleksiv va subyektiv-irratsional rivoyat darajalari, ularning har biri inson psixikasining tegishli tomonlariga qaratiladi. Qahramon tashqi ko'rinishning izchil tasviri ichki bayonga hissa qo'shib, roviy nutqining asosiy predmetiga aylanadi hamda ichki nutqdagi o'zgarishlarga olib keladi, bayon etuvchining hayoti fenomenologik hikoyaning asosiy mavzusi bo'lgan. Fenomenologik rivoyatni shakllantirishning asosiy tendensiyasi ijod psixologiyasi muammolarini birinchi o'ringa chiqaradi. Fenomenologlar badiiy asarga nisbatan ijodkorning matnda aks etgan shifrlangan ongi sifatida qarashadi. Demak, fenomenologik metod orqali qilingan tahlilda kontekstdan tashqariga chiqilmaydi va boshqa tashqi faktorlarga murojaat qilinmaydi. Chunki muallifning ong fenomenini, aynan, matnning o'zidan qidirish kerak. Hikoyani muallif ongining hodisasi sifatida o'rgansak, shundagina tadqiqot olam muallif ongida qanday paydo bo'lishini va adabiy hodisada muallif ongi tomonidan qanday qayta ishlanishini ko'ra olamiz. Ayni hodisada muallifning ong ishi asar yaralishini ta'minlovchi tasavvur, dunyoqarash, xotira, taqlid, o'zini anglash, dunyoni anglash va boshqa adabiy unsurlar yordamida o'rganiladi. Shukur Xolmirzayevning deyarli barcha asarlarida muallif ong fenomenlarini uchratsak-da, ushbu fasldagi tahlillar uchun muallif-roviy yoki muallif-qahramon sifatida ishtirok etgan hikoyalarni obyekt sifatida oldik. 1987-yilda yozilgan "Yashil "Niva"" hikoyasida sobiq sho'ro tuzumining 80-yillari aks etgan bo'lib, asar ichki matnlarni o'z ichiga olmaydi – voqelik qahramonga tegishli, ammo u muallifning ko'zga ko'rinadigan izlarini qoldirmagan. Asarda muallifning ong fenomenidagi voqelik ramzlar orqali berilib, biror obraz yoki qahramonga nom qo'yilmagan. Shunchaki

“domla”, “diktator”, “inspektor” singari nomlar bilan berilgan. Hikoya “yashil” va “qizil” ranglarining bir-biriga qarshi qo’yilishi bilan boshlanadi. Yashil Niva, qizil Jiguli. Bu ramziy ranglarning ma’nosini millatimiz tarixidan xabardor bo’lmagan o’quvchi tushunmasligi tabiiy. Fenomenologik tahlilga esa idrok etuvchi ong, ya’ni o’quvchi faktorini hisobga olmay kirishib bo’lmaydi. Muallif ong fenomeni o’zidagi badiiylashgan xotirani o’quvchi ong fenomeniga qanday tashiyapti? Va o’quvchi uni qanday qabul qilyapti? Agar muallif ramzlarga tushuntirish berib o’tmaganida, ongi butunlay boshqa g’oyalar bilan ulg’aygan o’quvchi uchun tasavvur qiyinchilik tug’dirardi. “Yashil”, “qizil”, “diktator” ayni shu uchta ramz qo’ruv, mutelik va hukmronlik belgilariga ishora qiladi. Eng yomoni esa jamiyat ham, odamlar ham shu qonuniyatga moslashib, ko’nikib qolgani va ular bolaligidan shu ruhiyatda tarbiyalangani. “Biz tomonning odamlari ancha serandisha keladi. Biz kattalarga – xususan, yoshi ulug’laru lavozimi bor shaxslarga ta’zim qilib o’rganganmiz. Yo’g’asam zamonga qaramaysanmi deng? Sotsializmdan putur ketgani aniq”. Bu keltirilgan jumlar orqali ijodkor ong fenomeni qaysi g’oyalar bilan ulg’aytirilgani va u qaysi davr, qaysi jamiyatning kishisi ekani yaqqol ko’rinib turibdi. Hikoya orqali ijodkor o’zining hayotiy tajribasini rasmiylashtirgan. O’zini “qizil” rang ramzida tasvirlab, unga qarshi “yashil” rangni qo’yish bilan butun davr, ijtimoiy tuzum qiyofasini ochishga urinadi. Demak, muallif ong fenomenida bu ranglar tengsizlik, diktatura, shaxsga sig’inish qiyofalari sifatida gavdalanadi. Bunday gavdalanishiga yana bir sabab esa odamlar o’zidagi qusurlarni andisha ortiga yashirib ko’rsatishga, kamchiliklarini xaspo’shlashga urinishidir. Aslida 80-yillarda jamiyatdan yuqorida sanab o’tilgan illatlar ketgan, ammo ularning ta’siri butun bir avlod ongiga, qoniga singib qolgan edi. Bu bilan muallif millat fojiasiga ham ishora etib o’tadi.

Rus adabiyotshunosi Turyeshiva Jan Pol Sartrning asarlarini tahlil qilar ekan, muallif figurasiga murojaat qilib, uning qismati o’zining dastlabki tanlovi amalga oshgani natijasi ekanini ko’rsatadi. Bu masala muallif o’z hayoti ko’rinishi bilan bog’liqligini, muallif anglamagan holda ijod mohiyatida o’z tabiatini tasvirlashini qayd etadi. Bunda esa ijodkor yashagan davr, atrof-muhit, ijtimoiy tuzumning ta’siri katta. Demak, hikoyaning boshidagi tasvirlardayoq davr, ijtimoiy tuzum hodisalari muallifning ong fenomeniga qay darajada o’rnashib qolgani, fikrlarini, aytishga hayiqqan gaplarini esa qahramon tiliga ko’chirib aytib olganining guvohi bo’lamiz. “U yoq tinch, yo’li tekis, eng muhimi-diktator yo’q”, “Ketyapmiz-u, ko’nglimning ostida bir tahluka paydo bo’ldi. “Diktator” uchrab qolmasin-da”. Shu jumlalarining o’zi bir inson qismati, uning butun boshli hayoti-yu faoliyati qanday kechayotganini ko’rsatib turibdi. Xayolida kimdandir cho’chish, kimgadir yoqish va o’sha kimningdir jig’iga tegib qo’ymaslik. Shaxsiy “men”ning ehtiyoj-u istaklari doim bir chetda qolib ketadi, kimningdir o’lchovlari doirasida yashashga harakat qiladi. Aksiga olib hikoya qahramoni ziyoli, o’qituvchi, millatning ma’naviyatini, kelajagini belgilaydigan odam. Bunday qarama-qarshi tasvirlar o’quvchining g’ashini keltirib, qahramonga nisbatan nafrat uyg’ota boshlaydi. Ayni shu nuqtada badiiy asar va idrok etuvchining ong fenomenlari

orasidagi reaksiya vujudga keladi. Ya'ni matn o'quvchi tasavvuri, g'oyalari va fikrlariga ta'sir ko'rsatadi. Insonning qo'rqqoligi, shaxsiy "men"i yo'qligini, kimningdir izmida yashashga o'rganib qolganini qoralaydi. Tasavvurini ishlatib "o'rnida bo'lganimda o'tib ketardim" degan fikrlar uyg'onadi. Badiiy asar yaratilayotgan paytda (agar u chinakam badiiy asar deyishga arziqli bo'lsa) ma'lum bir doira uchun, masalan, tanqidchining fikrini o'ylab yozilmaydi. U xalq uchun yoziladi. Va matnni o'qigan har bir o'quvchida o'zicha jo'n bo'lsa ham tahlillar paydo bo'ladi. Faqat oddiy o'quvchi adabiyotshunos singari fikrlarini tizimli ifoda etolmaydi, xolos. Yuqorida badiiy ijod fenomenologiyasi ro'y berishi mumkin bo'lgan ilk nuqtani ko'rsatib o'tdik. Bu o'quvchining muallif ong fenomeniga qarama-qarshi yoki hayrixoh chiqishi.

Domlaning xarakteriga qarama-qarshi ravishda qahramonning yoshgina o'g'li obrazi qo'yilganki, uning ongi hali davr chirkinliklaridan, shaxs muteligidan toza, qo'rquvni bilmaydi. Xuddi o'quvchiga o'xshab otasini yashil "Niva"dan o'tib ketishga undayveradi. Yashil "Niva"ni orqada qoldirish esa ota uchun halokat. Muallif yosh bola obrazini ertangi yorug' kun, ozod millat timsoli sifatida tasvirlar ekan, domla oilasi oldida g'ururi nechog'liq yerga urilayoganini ich-ichidan his qilsa-da, jim qoldiradi. Asarning shu o'rnida ham o'quvchi tasavvuri zo'riqib ishlaydi. Uning ong fenomenida qahramonning nechog'lik qo'rqqoligini, oqim bilan qanchalar tekis suzishini, noto'g'riligini bilsa-da indamay ko'nikkan hayot tarziga moslashib yashayotganiga norozilik tug'iladi. Volfgang Izer o'zining "O'qish jarayoniga fenomenologik yondashuv" tadqiqotida quyidagi nuqtayi nazarni bayon qiladi: "San'atning fenomenologik nazariyasi adabiy asarni tahlil qilishda nafaqat asar matnini, balki bizning asarga bo'lgan javoblarimizni ham hisobga olish kerakligidan kelib chiqadi. Demak, hikoyachining adabiy asari qabul qiluvchini bir qator reaksiyalarga olib keladi, o'qish jarayonida u o'z shaxsiyati chegaralaridan tashqariga chiqish bilan bog'liq tajribani boshdan kechiradi. Muallifning ong fenomenidagi jamiyatni, tuzumni eslatgan ranglar, o'quvchida butunlay boshqa xotiralarni uyg'otishi ham mumkin. O'quvchining tasavvuri jonlansa, u o'z navbatida mavjud matnga ta'sir qila boshlaydi. Badiiy ijod fenomenologiyasi shu tarzda bir-biriga bog'liq jarayondir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.Gusserl. General introduction to a pure fenomenologiy. Boston, Lankaster 1983. P.19
2. Эргаш Ғозиев. Умумий психология. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти –Тошкент. 2010: Б.291
3. Кенжаева П У. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон психологиясини тасвирлаш тамойиллари фил фан номз дисс. Тошкент. 2008. Б1
4. О.Н.Турышева. Теория и методология зарубежного литературоведение. Флинта-Наука. 1995. Б.123
5. И. В. Кабанов Современная литературная теория Антология. Москва. Издательство Флинта Наука 2004.